

## MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA INGLIZ TILI FANINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN UYG'UNLIGI

**Mansurov O'lmas Fazliddinovich**

Samarqanda davlat chet tillar instituti talabasi

E-mail: [ulmasmansurov6@gmail.com](mailto:ulmasmansurov6@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tili fanining maktab o'quvchilari orasida axborot texnologiyalar orqali o'rgatish va keng targ'ib qilish, chet tillarini chuqr o'zlashtirishning innovatsion usullarini tatbiq etish kabi masalalari uchun tuzilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv o'yinlar, lingafon xonalar, serharakat mashg'ulotlar, innovatsion uslub, ta'lim infratuzilmasi.

**Abstract:** This article is written for such issues as teaching and wide promotion of English language among schoolchildren through information technologies, implementation of innovative methods of in-depth learning of foreign languages.

**Keywords:** interactive games, language rooms, active classes, innovative methods, educational infrastructure.

Hozirgi globallashuv zamonda chet tillariga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida kadrlarga bo'lgan talab ham ortmoqda. Zamonaviy kadrlar safiga kirish uchun esa bugungi kunda axborot texnologiyalarini , ingliz tili tili bilishi va o'z sohasi bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni aynan ma'lum bir kasbni egallash vaqt kelganida emas, balki maktab chog'laridanoq o'rghanish kerak bo'ladi. Chet tillarini o'rghanishni ommalashtirish chora-tadbirlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 – sonli farmoyish imzolangan.Bugungi kunga kelib maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning ba'zi bir samarali

yo'llarini qidirishmoqda. 21-asr — Bu axborot texnologiyalar asri hisoblanadi. Biz allaqachon barcha sohada raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirmoqdamiz. Maktab o'quvchilariga ingliz tili fanini o'rganishi uchun avvalo **ta'lim infratuzilmasida** islohotlarni amalga oshirish kerak. Chunki yetarli miqdorda va zamon talabiga mos shart-sharoitlar bilan ta'minlanmagan maktabda qanday qilib o'quvchini chet tillariga bo'lgan qiziqishini uyg'otish mumkin?. Albatta, bu borada bizga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamga keladi. O'quvchini ingliz tilini o'rganishida an'anaviy qog'ozdagi o'quv materiallardan foydalangandan ko'ra monitor va proyektrlardan foydalanib ularning diqqat markazini qaratish mumkin. Shuningdek, hozirda ijtimoiy tarmoqlarda turli xildagi **interaktiv o'yinlar** ham keng tarqalgan. Ushbu yangicha **innovatsion usul** o'quvchining chet tillarini o'rganishda ijobiy yutuqga erishishda yordam beradi. Misol uchun : kahoot online platformasi, playblooket kabi online platforamalar ingliz tili darajani oshirish va o'quvchida yetarli darajada so'z boyligini o'rganishida qo'l keladi. Bugungi kundagi ko'pchilik ingliz tili mutaxasislari, o'qituvchilar ham ushbu samarali yo'ldan foydalanib kelishmoqda. Mustaqillik yillaridan keyin chekka tumandagi maktablarda ham o'quvchilarning chet tillarini puxta o'rganishlari uchun **lingafon** xonalarini tashkil etildi va kerakli texnik jihozlar bilan ta'minlandi. Ingliz tilining har bir kompetensiyalarini (reading, listening, writing, speaking) o'quvchilarga o'rgatib borish va singdirish uchun zaruriy axborot-kommunikatsion vositalar, jumladan: kompyuter,player va CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish biroz murakkab. O'quvchilarning tilga bo'lgan ehtiyoji bugungi kunda avvalgiga nisbatan ancha ortdi. Ingliz tili darslarida o'quvchilarga interfaol o'yinlar tashkil etish uchun avvalo o'qituvchida yetarlicha malaka va ko'nikma bo'lishi kerak. O'rta sinf o'quvchilariga ingliz tilida multfilm, kino, videorolik va boshqa hujjatli filmlar ko'rsatilsa, ularda avtomatik tarzda tilga bo'lgan qiziqsh uyg'onadi. Shu bilan birgalikda, o'quvchilar bilan jonli tarzda dars mashg'ulotlarni tashkil etish kerak. Hozirda o'quvchilar uchun ingliz tilida juda ham **serharakat mashg'ulotlar** mavjud. Bular:

● **Pantomima** — bunda o‘quvchi tur xil mavzulardagi so‘zlarni boshqa o‘quvchilarga qo‘l harakatlari va artikulyatsiya orqali ifoda etib beradi;

● **Kviz kartochkalari( quiz cards)** — bu mashg‘ulotda bir vaqtning o‘zida kartochkalar tarqatiladi va bunda barcha o‘quvchilarning bir paytda qatnashishi imkonini beradi;

● **Rasmlar gapirganda( when pictures speak)** — monitorda ma’lum bir mavzuga oid rasm yoki foto bo‘ladi. O‘quvchilar esa ushbu rasm orqali hikoya tuzishlari kerak bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarga og‘zaki nutqlarini oshirishda xizmat qiladi.

● **Bu kim?( who is this?)** – bunda o‘quvchilar ekranda ko‘rsatilgan predmet, shaxs yoki mashhur insonlarni shaxsini sir tutgan holda, ularning fe’l-atvorlari , yuz tuzilishi va jamiyatda tutgan o‘rni orqali ta’riflab berishlari kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili fanini axborot texnologiyalar orqali o‘quvchilar orasida targ‘ib qilish , ularni tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yuksaltiradi, dunyoqarashi kengayadi, ingliz tilida tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1] Yoraliyeva U.Q Maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va unda interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. -T., 2014,9-son 27-b;
- 2] Tajibayev G.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish, 3.14. Boshlang‘ich sinflarda Ingliz tilini o‘rgatishning usullari, 134-b;
- 3] <https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem>;
- 4]<https://lex.uz/ru/docs/-5431845?ONDATE=03.08.2022>;
- 5] Отабоева, М. Р. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020).